
OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

# “SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA IQTISODIY BOSHQARUVNI OPTIMALLASHTIRISH: SAMARADORLIK, INNOVATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

## MATERIALLARI



QARSHI SHAHRI
2026-YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

# SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA IQTISODIY BOSHQARUVNI OPTIMALLASHTIRISH: SAMARADORLIK, INNOVATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2026-yil 13 – 14-mart

**QARSHI – 2026**

**УУК 004.8:338.24**
**ББК -32.818+65.05 С-95**

“**Sun’iy intellekt asosida iqtisodiy boshqaruvni optimallashtirish: samaradorlik, innovatsiya va barqaror rivojlanish**” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2026. – 3150 bet.

Mazkur maqolalar to‘plamida jamlangan maqolalar zamonaviy iqtisodiy jarayonlarda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni, iqtisodiy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan. To‘plamda sun’iy intellekt asosida iqtisodiy tahlil, prognozlash, resurslardan samarali foydalanish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish kabi dolzarb yo‘nalishlar yoritilgan. Mualliflar tomonidan iqtisodiyotning turli sohalarida Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, ilg‘or xorijiy tajribalar hamda ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Mazkur to‘plam olimlar, mutaxassislar va talabalar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**MAS’UL MUHARRIR**
**Raxmonov Lochin To‘xtamishovich –**
**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

**TAHRIR HAY’ATI**

G’ulomov S.S. – O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Mustafakulov Sh.I. – Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Mahmudov N.M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Ibragimov E.X. – Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori
Abdullayev O‘.Sh. – Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig‘i
Turgunov A.M. – Osiyo texnologiyalar universiteti professori
Muxiddinov X. S. – Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Norqobilova F.A. – Qarshi davlat texnika unversiteti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abdullayev M.K. – Xalqaro Nordik universiteti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori
Nishonov J.T – Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi mudiri
Normamatov X. M. – Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (2026-yil 27-fevral, 02-son bayonnoma)

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas’uldir.

© Osiyo texnologiyalar universiteti, 2026.

# "YALDO KECHASI" ROMANIDA JAHON SIYOSATI BUGUNGI MUAMMOLARINING INTERTEKSTUALLIK VOSITASIDA BADIIY TALQIN ETILISHI

*Xo'jamurodova Oydin Xo'jamurod qizi*

*PhD. Osiyo texnologiyalar universiteti Tillar kafedrasi mudiri*

*E-mail: oydinxojamurodova@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" (2025) tarixiy romanida bugungi jahon siyosatiga xos muammolarning intertekstual poetika vositasida badiiy talqin etilishi tadqiq qilinadi. Asarning Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"iga ilova – adabiy mistifikatsiya sifatida yaratilgani J.Jennetning transtekstuallik nazariyasi asosida tahlil etiladi. Sarlavha va epigrafning paratekstual vazifasi, hujjat, gazeta hamda maktub matnlarining romanga kiritilishi, "matn ichida matn" hodisasi ko'rib chiqiladi. Buyuk davlatlarning ta'sir doiralari yuzasidan kelishuvi, kuchsiz xalqlar taqdirining xalqaro huquqdan tashqarida qolishi, parchalab boshqarish siyosati, axborot vositasida haqiqatning ishlab chiqarilishi, rasmiy suverenitet bilan real salohiyat o'rtasidagi tafovut kabi ma'noviy qatlamlar zamonaviy xalqaro munosabatlar muammolari bilan qiyosiy tarzda o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** intertekstuallik, gipertekstuallik, adabiy mistifikatsiya, paratekst, "O'tkan kunlar", "Yaldo kechasi", jahon siyosati, ta'sir doiralari, axborot urushi, xronotop, milliy o'zlik, tarixiy roman.

Bugungi jahon siyosati bir necha o'n yilliklar mobaynida barqaror ko'ringan qoidalarning qaytadan ko'rib chiqilayotgani bilan tavsiflanadi. Xalqaro huquqning umumiy me'yorlari o'rniga kuch salohiyati, ta'sir doiralari yuzasidan tuzilgan ochiq va yashirin kelishuvlar, iqtisodiy hamda texnologik bog'liqlikning siyosiy bosim vositasiga aylanishi, axborot orqali jamoatchilik ongini boshqarish amaliyoti tobora hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Adabiyot bu jarayonlarga, tabiiyki, publitsistik bayonot tilida emas, balki o'ziga xos badiiy vositalar orqali javob qaytaradi. Ana shunday vositalarning eng ta'sirchani – intertekstuallik, ya'ni matnning o'zidan oldingi va zamondosh matnlar bilan ochiq yoxud yashirin muloqotga kirishuvidir. Zero, siyosiy voqelikni bevosita nomlash va baholash publitsistikaning vazifasi bo'lsa, uni tarixiy tajriba matnlari orqali ko'rsatish, o'quvchi ongida o'tmish bilan bugun o'rtasida ma'noviy ko'prik hosil qilish badiiy adabiyotning imkoniyatidir. Shu ma'noda intertekstual poetika zamonaviy siyosiy tafakkurni badiiy talqin etishning eng nozik, ayni paytda eng samarali usuli sanaladi. 2025-yilning dekabrida chop etilgan "Yaldo kechasi" tarixiy romani ushbu imkoniyatning o'zbek nasridagi yorqin namunalaridan biri sifatida baholanmoqda. Xayriddin Sulton qalamiga mansub, "Xaybar-25" nashriyotida to'rt yuz oltmish bir bet hajmda bosilgan asar "O'tkan kunlar"ga ilova degan

janriy izoh bilan taqdim etilgan. O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov asarning mas’ul muharriri sifatida uni adabiy mistifikatsiya usulida, buyuk Qodiriy nomidan va Qodiriy bo‘lib yozilgan matn deb baholadi. Romanda Otabek, uning o‘g‘li Yodgorbek, nevarasi Odilbek va Ozodbek taqdiri orqali chor mustamlakachiligi, jadidchilik harakati, Turkiston Muxtoriyati hamda istiqlolchilik kurashi davri qamrab olinadi. Muallif asarni “tarixiy hujjatlar asosidagi badiiy to‘qima” tarzida qurgan: unda personajlarning ovozi bilan bir qatorda rasmiy yozishmalar, maxfiy ko‘rsatmalar, gazeta xabarlari va shaxsiy maktublar ham mustaqil matn sifatida ishtirok etadi. Shu tariqa asar boshdan-oyoq intertekstual tabiat kasb etib, uning har bir qatlami boshqa bir matnga – Qodiriy romaniga, tarixiy hujjatga, davr matbuotiga, mumtoz she’riyatga tayanadi.

J.Jennet taklif etgan transtekstuallik tasnifi asosida qaralganda, “Yaldo kechasi”da ushbu munosabatning deyarli barcha turlari birdek faol ekani ko‘rinadi. Asar, avvalo, sof gipertekstual hodisa: u “O‘tkan kunlar”ni gipomatn sifatida tan oladi va uni davom ettirish yo‘lidan boradi, ya’ni parodiya yoki inkor emas, balki uzilib qolgan hikoyani tiklash mantiqiga asoslanadi. Ikkinchidan, sarlavha, epigraf, “Bu kitob” deb nomlangan so‘zboshi, muqovadagi iqtiboslar va forzatsdagi personaj monologlari kuchli paratekstual maydon hosil qiladi – o‘quvchi asosiy matnga kirmasdan turib, uning ma’noviy yo‘nalishini qabul qilib ulguradi. Uchinchidan, tarixiy roman janriga daxldorlik arxitekstual munosabatni belgilaydi. To‘rtinchidan, matn ichida Qodiriy uslubi, uning tili va yozuv tarziga oid bilvosita mulohazalar mavjudligi metatekstual qatlamni yuzaga chiqaradi. Nihoyat, hujjat va gazeta matnlarining bevosita kiritilishi Yu.Lotman ta’rifidagi “matn ichida matn” hodisasini vujudga keltiradi, bu esa asarning ma’noviy zichligini bir necha barobar oshiradi. Sarlavhaning o‘zi alohida tahlilga arziydi. Yaldo kechasi – sharq taqvimida 21-dekabrdan 22-dekabrga o‘tar tun, yilning eng uzun kechasi bo‘lib, fors-tojik va turkiy mumtoz she’riyatida u hijron, intizorlik hamda zulmatning tugamasligi ramzi sifatida qaror topgan. Muallif bu qadimiy timsolni Muhammad Sharif Gulxaniyning tongi ham, muazzin bongi ham yo‘q tun haqidagi bayti bilan mustahkamlaydi va uni asarga epigraf qilib oladi. Mazkur paratekstual qadam nihoyatda muhim: u romanning ma’nosini muayyan tarixiy davr chegarasidan olib chiqadi. Agar matnda tasvirlangan zulmat faqat chor va sho‘ro istibdodiga tegishli bo‘lganida, sarlavha ham aniq tarixiy nom bilan atalgan bo‘lardi. Taqvimiy va mumtoz-she’riy timsol tanlangani esa tunni takrorlanuvchi holat, ya’ni o‘ziga xos siyosiy xronotop darajasiga ko‘taradi. Shu bois bugungi o‘quvchi asardagi tunni o‘z zamonasining inqirozlari – urushlar, gumanitar falokatlar, xalqaro kafolatlarning ishlamay qolishi bilan bemalol qiyoslay oladi.

Romanning siyosiy mazmuni ochiladigan birinchi va eng salmoqli qatlam – dunyoning buyuk davlatlar o‘rtasida bo‘lib olinishi masalasidir. Otabek tilidan aytilgan mulohazada ikki imperiya – rus podshohligi va ingliz saltanati zimdan kelishib olgani, ya’ni Rossiya Hindistondagi ingliz hukmronligiga daxl qilmasligi evaziga Angliya ham Turkiston istilosiga aralashmasligi to‘g‘risidagi til biriktiruv anglashiladi. Bu mulohazaning yakuni esa ayniqsa

achchiq: qahramon nazdida kichik bir musulmon ulusi uchun "ikki nasroniy davlat bir-biriga qarshi tig' ko'tarmas". Mazkur epizod XIX asr diplomatiyasi tarixidagi "Katta o'yin" hujjatlari bilan bevosita intertekstual aloqaga kirishadi. Ammo uning badiiy kuchi tarixiy aniqlikda emas, balki tanish tuyulishida: bugungi o'quvchi bu satrlarni o'qir ekan, xalqaro munosabatlar amaliyotiga qaytib kelayotgan ta'sir doiralari ritorikasini, kichik davlatlar taqdirining ular ishtirokisiz hal etilishini, mintaqaviy nizolarning yirik markazlar manfaati doirasida muzlatib qo'yilishini beixtiyor yodga oladi. Matn hech qanday zamonaviy voqeani nomlamaydi, biroq qiyoslash imkonini butunlay ochiq qoldiradi.

Ikkinchi qatlamni Ozodbek obrazi bilan bog'liq mulohazalar tashkil etadi. Uning fikricha, dunyo qudratli saltanatlar o'rtasida allaqachon taqsimlab bo'lingan va bu taqsimotda Turkiston kabi zaif o'lkalarning ulushi yo'q darajada. Qahramon fikrini yanada keskin davom ettirib, agar butun bir millat va davlat dunyo xaritasidan o'chib ketsa ham, bu fojia "jahon hojalarini chivin chaqqan kabi seskantirmas"ligini aytadi. Bu – sof siyosiy realizm falsafasining badiiy ifodasi bo'lib, unda xalqaro tartibning himoya funksiyasi shubha ostiga olinadi. Ozodbekning xulosasi – o'zini o'tga tashlamay, elni yo'q bo'lib ketishdan asrab qolish zarurligi – pragmatik saqlanish strategiyasidir. Muhimi shundaki, roman bu pozitsiyani na to'liq oqlaydi, na qoralaydi: uning yonida Odilbekning oxirgi tomchi qonigacha kurashish haqidagi qasami turadi. Aynan shu ikki qutb o'rtasidagi ziddiyat asarning eng zamonaviy jihatidir, zero bugungi kichik va o'rta davlatlar ham xuddi shu tanlov – ehtiyotkor moslashuv bilan tamoyilga sodiqlik o'rtasidagi tanlov qarshisida turibdi.

Uchinchi qatlam parchalab boshqarish siyosati va axborot vositasida ong ustidan nazorat o'rnatish masalasiga bag'ishlangan. Mustamlaka ma'muriyatining mafkuraviy strategi sifatida gavdalanuvchi obraz tilidan mahalliy aholi orasida qanchalik ko'p nizo bo'lsa, shuncha yaxshi ekani, ularning qadimchi va jadidga bo'linib bir-birini yeb bitirishi ayni murod ekani ochiq aytiladi; asosiy maqsad – "o'zaro ittifoq bo'lmasin, birlashmasin". Bu – bo'linishni tabiiy hodisa emas, balki boshqariladigan resurs sifatida ko'rish mantiqidir. Uning yonida diniy ulamolar nomidan hukumatga yozilgan, o'z millatdoshlarini jadidchilikdan "qutqarish"ni so'ragan iltimosnoma turadi; bu maktubda keltirilgan "al-hukmu liman g'alab", ya'ni hukm g'olibniki, degan qoida esa kuchning huquq o'rnini egallashini butun teranligi bilan ifodalaydi. Bugungi jahon siyosatida jamiyatlarni ichkaridan qutblashtirish, sun'iy ravishda kuchaytirilgan mafkuraviy va guruhiy tafovutlar orqali davlatlarni zaiflashtirish amaliyoti gibrid ta'sir usullarining markazida turgani hisobga olinsa, bu epizodlarning zamonaviyligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Bu qatlamga bevosita tutash yana bir mavzu – din va mafkuraning siyosiy manfaat yo'lida vosita sifatida ishlatilishidir. Roman bu masalada hech qanday soddalashtirishga yo'l qo'ymaydi: bir tomonda ma'rifat tarafdorlaridan "qutqarish"ni so'rab mustamlaka ma'muriyatiga murojaat qilgan ruhoniy obrazi turadi, ikkinchi tomonda esa iymonni milliy ozodlik va qadr tushunchasi bilan birga anglagan Odilbek hamda uning safdoshlari

gavdalanadi. Shu tariqa muallif din bilan siyosat chatishgan nuqtada paydo bo‘ladigan ikki qarama-qarshi natijani – itoat mafkurasi va qarshilik mafkurasini yonma-yon qo‘yadi va bahoni o‘quvchiga havola qiladi. Bugungi jahon siyosatida diniy omilning ham radikallashtirish, ham geosiyosiy raqobatda ta’sir o‘tkazish vositasi sifatida ishlatilayotgani, mazhabiy tafovutlarning sun’iy tarzda mojaro darajasiga ko‘tarilishi hisobga olinsa, romanning bu qatlami nihoyatda dolzarb ekani ko‘rinadi. Muhimi shundaki, asar dinni na ayblaydi, na mutlaqlashtiradi – u faqat dinning kim tomonidan va qanday maqsadda talqin qilinayotganiga e’tibor qaratadi. Axborot orqali haqiqatni ishlab chiqarish mavzusi romanda hujjatli intertekst yordamida ochiladi. Yodgorbekning halok bo‘lishi rasmiy nashr xabari orqali beriladi: unda qahramon qochishga urinib daryoga tashlangani, shu sababli askarlar uni otishga majbur bo‘lgani bayon qilinadi. O‘quvchi voqeaning asl tafsilotini asar mantiqidan bilib turgani uchun rasmiy matn bilan haqiqat o‘rtasidagi tafovut yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu – matbuotning voqelikni aks ettiruvchi emas, uni yaratuvchi kuchga aylanishi haqidagi eng ixcham badiiy dalildir. Xuddi shu vazifani muqaddas kitobni kutib olish tadbirlarini cheklash haqidagi maxfiy ko‘rsatma ham bajaradi: unda ommaviy tadbirlar taqiqlanadi, yig‘ilgan mablag‘lar noqonuniy deb topiladi. Bunday hujjatlarning badiiy matn tarkibiga o‘zgartirishsiz kiritilishi Lotman ta’kidlagan qo‘shaloq kodlashtirish samarasini beradi – hujjat bir vaqtning o‘zida ham tarixiy dalil, ham badiiy timsol sifatida ishlaydi. Zamonaviy o‘quvchi ongida esa bu dezinformatsiya, rasmiy talqin monopoliyasi va raqamli davrdagi axborot urushlari bilan bevosita qiyoslanadi.

To‘rtinchi qatlam rasmiy mustaqillik bilan real salohiyat o‘rtasidagi tafovutni ochib beradi. Turkiston Muxtoriyati taqdiri haqida mulohaza yuritgan personajlardan biri davlatchilik faqat orzu bilan barqaror bo‘lmasligini, buning uchun harbiy iqtidor, sarmoyaviy qudrat va elning yakdilligi zarurligini, muxtoriyatda esa bu uch narsaning birortasi ham yetarli emasligini aytadi. Uning e’tiroziga ilova qilingan tafsilot ayniqsa ramziy: muxtoriyat nomidan chiqarilgan nashrning nomi ham, tili ham, harfi ham o‘zga tilda edi. Bu detal orqali muallif siyosiy suverenitetning madaniy va lisoniy asosga ega bo‘lmasa qanchalik zaif ekanini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ham davlatlarning rasmiy mustaqilligi ularning texnologik, moliyaviy, axborot va ta’lim sohalaridagi tobeligini bekor qilmaydi; til va o‘zlik masalasi esa xalqaro raqobatning eng sezgir nuqtalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Roman bu haqiqatni bir asr avvalgi tajriba orqali, ya’ni tayyor xulosa bermay, o‘quvchining o‘zini xulosaga olib kelish yo‘li bilan anglatadi. Asarda ma’rifat masalasining siyosiy o‘lchovi ham alohida ta’kidlanadi. Yodgorbek obrazi bilan bog‘liq voqealar zanjiri diqqatga sazovor: qahramon qurol ko‘targani uchun emas, maktabdorlik qilgani va nashr chiqargani uchun surgunga hukm etiladi. Bu detal mustamlaka tizimi uchun ta’lim va matbuot qurolli qarshilikdan kam bo‘lmagan xavf ekanini ko‘rsatadi; zero, o‘qigan avlod uzoq muddatda har qanday harbiy g‘alabani bekor qilishga qodir. Jadid maktabining taqiqlanishi, milliy nashrlarning ta’qib ostiga olinishi romanda alohida syujet chizig‘i darajasiga ko‘tariladi. Zamonaviy talqinda bu qatlam “yumshoq kuch” tushunchasi bilan bevosita bog‘lanadi:

bugungi kunda ta'lim tizimining sifati, ilm-fan salohiyati, til va madaniyat maydonidagi mavqe davlatlarning xalqaro raqobatdagi haqiqiy o'rnini belgilovchi omillar qatoriga kirgan. Roman esa bu haqiqatni bir asr avvalgi tajriba orqali, ya'ni nazariy atamalarsiz, insoniy taqdirlar tilida bayon etadi.

Beshinchi qatlam – majburiy ko'chirish va jazo siyosati. Mustamlaka ma'muriyati vakili tilidan Sibirda bo'sh joy ko'pligi va itoatsizlarga jazo berish uchun podshoh askarlari yetarli ekani aytiladi. Bu qisqagina jumla butun bir siyosiy uslubning formulasidir: hududni bo'shatish, aholini surgun qilish, qo'rquv orqali boshqarish. XX asr tarixida bu amaliyot ommaviy deportatsiyalar shaklida takrorlangan bo'lsa, XXI asrda u urushlar natijasida yuzaga kelayotgan majburiy migratsiya, qochqinlar oqimi va aholining o'z yurtidan siqib chiqarilishi ko'rinishida davom etmoqda. Romanning kuchli tomoni shundaki, u bu holatni statistik fojia sifatida emas, balki muayyan oila – bir bobo, bir ota va bir nevaraning uzluksiz yo'qotishlari orqali beradi. Uch avlodning ketma-ket halok bo'lishi tarixiy zo'ravonlikning tasodifiy emas, tizimli tabiatini ko'rsatadi.

Endi asosiy nazariy savolga – nima uchun aynan intertekstuallik bunday talqinni mumkin qilishiga to'xtalamiz. M.Baxtin ta'limotiga ko'ra, har qanday so'z o'zga so'z bilan muloqotda tug'iladi; Yu.Kristeva bu qoidani matn nazariyasiga ko'chirib, matnni iqtiboslar mozaikasi deb atagan edi. "Yaldo kechasi"da o'tmish matni bugungi ong bilan aynan shunday muloqotga kirishadi: o'quvchi "O'tkan kunlar"ni bilgani holda yangi matnni o'qiydi va ikki matn oralig'ida uchinchi – o'zining zamonaviy tajribasidan iborat ma'noviy maydon hosil bo'ladi. M.Riffaterre ta'kidlaganidek, intertekstual ma'no matnda tayyor holda yotmaydi, u o'quvchi idrokida faollashadi; shu sababli asardagi siyosiy talqin muallif tomonidan aytilmagan bo'lsa-da, o'quvchi tomonidan muqarrar tarzda quriladi. H.Bloomning "ta'sir tashvishi" konsepsiyasi esa bu o'rinda o'ziga xos tarzda o'zgaradi: bu yerda salaf bilan kurash emas, aksincha, unga sodiqlik va uning uzilib qolgan ishini davom ettirish maqomi ustuvor. Bunday munosabat sharq adabiy an'anasidagi izdoshlik va uvaysiylik tamoyiliga borib taqaladi.

Adabiy mistifikatsiyaning o'zi ham mustaqil siyosiy ma'noga ega. Qatag'on tufayli yozilmay qolgan davomni tiklash – bu shunchaki uslubiy tajriba emas, balki tarixiy adolatsizlikka qarshi badiiy e'tirozdir. Muallifning o'zi so'zboshida asar mualliflari nomlari ma'lum va noma'lum yuzlab vatandoshlar, mohiyatan butun xalq ekanini ta'kidlaydi. Bu qarash muallif shaxsini matndan chetlashtirish orqali R.Bart aytgan o'quvchi hukmronligiga yo'l ochadi, ayni paytda milliy xotirani jamoaviy mulk sifatida taqdim etadi. Bugungi xalqaro siyosatda tarixiy xotira ustidan kurash, o'tmishni qayta yozish va o'zga xalqlar tarixini o'z manfaatidan kelib chiqib talqin qilish odatiy vositaga aylangan sharoitda, uzilgan matnni tiklash harakati o'z-o'zidan xotira siyosatidagi faol pozitsiyani anglatadi.

"Yaldo kechasi" romanida intertekstuallik uslubiy bezak yoki adabiy o'yin emas, balki dunyoqarash quroli darajasiga ko'tarilgan. Gipertekstual bog'lanish orqali asar milliy adabiy

an’ananing uzilgan ipini ulaydi; paratekstual vositalar orqali tarixiy voqelikni umuminsoniy holat darajasiga ko‘taradi; hujjatli intertekst orqali esa hokimiyat va haqiqat munosabatining tabiatini ochib beradi. Natijada bir asr avvalgi mustamlaka tajribasi bugungi jahon siyosatining eng o‘tkir masalalari – kuchlilar kelishuvi, kuchsizlarning huquqsizligi, jamiyatlarni ichdan bo‘lish, axborot orqali boshqaruv va madaniy tobelik muammolarini ko‘rish mumkin bo‘lgan ko‘zguga aylanadi. Asar nomidagi taqvimiy mantiq ham ma’noli: yaldo kechasi yilning eng uzun tuni bo‘lsa-da, undan keyin kunlar uzaya boshlaydi. Shu tariqa roman zulmat tasviridan umid falsafasiga o‘tadi. O‘zbek adabiyotshunosligi uchun esa bu asar intertekstual tahlil metodikasini zamonaviy nasr materialida sinash imkonini beruvchi o‘ta qulay obyekt sifatida ahamiyatlidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 504 с.

2. Кристева Ю. Избранные труды: Разрушение поэтики. – М.: РОССПЭН, 2004. – 656 с.

3. Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1989. – 616 с.

4. Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. – 490 p.

5. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 464 с.

6. Riffaterre M. Semiotics of Poetry. – Bloomington: Indiana University Press, 1978. – 213 p.

7. Bloom H. The Anxiety of Influence: A Theory of Poetry. – New York: Oxford University Press, 1973. – 157 p.

8. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Roman. – Toshkent: Sharq, 2019.

9. Sulton X. Yaldo kechasi. Tarixiy roman. – Toshkent: “Xaybar-25”, 2025. – 461 b.

10. “Yaldo kechasi” tarixiy romani kitobxonlar qo‘lida // Ma’rifat. – 2025. – 24-dekabr.

11. “Yaldo kechasi”ni kuting va o‘qing! // Jadid. – 2025. – 4-dekabr.

| | | | |
|---|---|---|---|
| **777.** | *Rustamova Nigora Ixtiyorovna* | *AVTOMOBILLARNING ELEKTR TIZIMLARI FANINI O‘QITISHDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR (SU’NIY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA)* | **3185** |
| **778.** | *Shodmonov Ruslan G‘olib o‘g‘li* | *RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASH: RAQAMLI VA YASHIL IQTISODIYOT INTEGRATSIYASI* | **3190** |
| **779.** | *Mirjalol Qodirov* | *Talabalarning mustaqil ishlash ko’nikmalarini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik-nazariy jihatlari* | **3196** |
| **780.** | *Farrux Eshmamatovich Eshdavlatov* | *Raqamli iqtisodiyot rivojlanish ko’rsatkichlarini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish* | **3202** |
| **781.** | *Iskandarov Abdurasul Mirjalil o’g’li* | *O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA DA’VO BOSHQARUVI SIFATINING ISTE’MOLCHI QONIQISHIGA TA’SIRI* | **3207** |
| **782.** | *Iskandarov Abdurasul Mirjalil o’g’li* | *TRANSPORT SUG‘URTASI BO‘YICHA DA’VOLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA TAVSIYALAR* | **3210** |
| **783.** | *Эгамбердиев Мурод Фарход угли* | *МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО* | **3212** |
| **784.** | *Эгамбердиев Мурод Фарход угли* | *СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ОБРАЗОВАНИЮ* | **3218** |
| **785.** | *Эгамбердиев Мурод Фарход угли* | *ИНКЛЮЗИВНОЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ: ОТ КОНЦЕПЦИИ К ПРАКТИКЕ* | **3224** |
| **786.** | *Egamberdiyev Murod Farxod o’g’li* | *HAR BIR QO'L - IJOD QO'LI: BOSHLANG'ICH SINF TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA INKLYUZIV TA’LIM METODLARNI JORIY ETISH TEXNOLOGIYALARI* | **3229** |
| **787.** | *Egamberdiyev Murod Farxod o’g’li* | *INKLYUZIV MUHITDA PEER-LEARNING (TENGDOSHLARDAN O'RGANISH) TEXNOLOGIYASINI TASVIRIY SAN'AT DARSLARIGA TATBIQ ETISH* | **3233** |
| **788.** | *Karimova Joziba Farrux qizi* | *TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY VA MADANIY HAYOT* | **3242** |
| **789.** | *Karimova Joziba Farrux qizi* | *TEMURIYLAR DAVRI ME’MORCHILIGIDA BADIIY USLUB VA KONSTRUKTIV YECHIMLAR UYG‘UNLIGI* | **3248** |
| **790.** | *Sanaqulova Sevinch* | *BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH* | **3253** |
| **791.** | *Xo’jamurodova Oydin Xo’jamurod qizi* | *“YALDO KECHASI” ROMANIDA JAHON SIYOSATI BUGUNGI MUAMMOLARINING INTERTEKSTUALLIK VOSITASIDA BADIIY TALQIN ETILISHI* | **3261** |